

FANLARNI O‘QITILISHIDA BARQAROR DIQQATNI TA’MINLASH USLUBLARI. BILISH JARAYONLARINING AHAMIYATI

Jo‘rayeva Nafisa Elmurodovna

Buxoro viloyati Jondor tumani 25-IDUM
amaliyotchi psixologi

**Davronova Dilafro‘z Samadovna,
Iskandarova Zebiniso Tuyg‘unovna**
20- maktab amaliyotchi psixoglari

ANNOTATSIYA

Bilamizki, umumta’lim maktabida tarbiyalanayotgan har bitta tarbiyalanuvchi ongining psixik rivojlanishi ahamiyatga molik sohadir. Dars jarayonida diqqatning ko‘chishi va barqaror iqrorning uzoq muddat davomiyligini ta’minlash, rivojlanishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur, nutq, shaxs rivojlanishi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat. “Men” ni anglash, o‘z-o‘zini baholash.

Diqqat psixik jarayon sifatida inson aqliy faoliyatining asosini tashkil etadi. Chunki, insonning har qanday bilish jarayoni bevosita diqqat bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘tadi. Masalan, biz diqqat qilib tinglaymiz, diqqatimizni to‘plab fikr yuritimiz, diqqatimiz bizga o‘tmishdagi ma’lumotlarni xotirlash va kelajak uchun yodda olib qolish imkonini beradi. Ya’ni diqqat o‘z xususiyatiga ko‘ra insonning barcha ixtiyoriy harakatlarini ta’minlovchi omildir. Demak, o‘quv jarayonida o‘quvchining diqqatini qanchalik uzoq vaqt ushlab turolsak, ta’lim samarasi ham shunchalik yuqori bo‘lishi tabiiy. Lekin bu oddiy tushunchaning qiyinligi shundaki, o‘quvchi doim ham o‘z diqqatini ixtiyoriy tarzda ob’ekt ustida jamlay olmaydi. Uning ixtiyori beixtiyor ravishda boshqa obektlarga chalg‘ib, ko‘chib turadi. Har qanday psixologik adabiyotda, diqqatning asosiy ikki turi qayd etilgan: ixtiyoriy (irodaviy) va ixtiyorsiz (beixtiyor) diqqat. Inson, uyg‘oq holatdan tashqi olamdan uzluksiz tarzda ma’lumot olib turadi va bu jarayonda ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlari o‘zaro o‘rin almashib boradi.

Bola diqqatini ongli ravishda ma’lum bir predmetlarga va ob’ektlarga yo‘naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko‘ra olishi mumkin.

Bolaning oilaviy va yon veridagi muhit, uning diqqatini jamlay olishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy holati va yon veridagi holat o'ta ta'sirchan, hayajon va tushkunliklarga molik bo'lsa, bola diqqatining jamlanishi sust bo'lib qoladi. Aksincha, barcha muhit xushchaqchaq va esda qolarli baxtiyorlikka molik bo'lsa, bola diqqatining jamlanishi yaxshi darajada bo'ladi. Umumman olganda har qanday o'quv jarayonini ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatning doimiy o'rin almashinuvidir. Shuning uchun tajribali pedagoglar har 10-12 minut vaqt oralig'ida o'quvchilarning diqqatini biror qiziqroq ob'ektga o'tkazadilar va bu orqalie'tiborni o'qitilayotgan mavzu doirasida ushlab turishni ta'minlaydilar. Buning uchun pedagog turli misollar, voqea va hodisalarga murojat etadi, tajriba usullarni qo'llaydi. Shu yo'sinda tajribali pedagog butun dars davomida o'quvchi diqqatini goh ixtiyoriy va goh ixtiyorsiz usullari orqali muhokama qilinayotgan mavzu ustida ushlab turishga erishishi mumkin.

Zamonaviy psixologiya fani ta'lim jarayoni samarasini ko'tarish imkoniyatlarini izlar ekan, o'quvchi diqqatini maqsadga yo'naltirilgan ravishda boshqarish masalasida quyidagi tavsiyalarni bera oladi. Maskur sohadagi birinchi yo'nalis-pedagoglarni o'quvchi diqqatining ichki mexanizmi va qonuniyatlari bilan tanishtirish hamda o'qitilayotgan predmetni o'zaro mantiqiy bog'langan yagona ma'lumot tizimi sifatida taklif etish. Ikkinchi asosiy yo'nalish – o'quvchilarda o'quv faoliyatini ixtiyoriy boshqarish malakasini shakllantirish maqsadida o'quvchi shaxsini o'z-o'zini kuzatishga, o'zining diqqat xususiyatlarini bilishga va o'quv jarayoni davomida o'z faoliyatidan samarali foydalanish uslublariga o'rgatish. Uchinchi yo'nalish esa ,pedagoglar faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beruvchi diqqatni boshqarishning unevirsal usullaridan foydalanishni talab etadi. Bunday universal us pxixotexnik mashqlarda o'z aksini topgan bo'lib, ma'lum jihatdan nafaqat diqqat jarayoni, balki o'quvchidagi barcha psixologik jarayonning faollashuviga xizmar qiladi.

Bugungi interfaol ta'lim shakllarini tashkil etishda qo'llaniladigan psixotexnik mashqlarni ikki asosiy turga ajratish mumkin: individual va guruh. Individual psixotexnik mashqlar turkumiga o'quvchining xotirasi, tafakkuri, fantaziyasi va idtok xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan turli ijodiy sinovlar kiradi. Bu guruh mashqlarning asosiy xususiyati, ularni har bir o'quvchi individual tarzda bajarish nazarda tutiladi. Bunda pedagog diqqat markazida bo'ladigan asosiy jihat shundan iboratki, taklif etilayotgan mashqlar o'quvchilar aqliy faoliyatining qaysi shakliga tegishli ekanligiga e'tibor qaratishdir. Agar umumpsixologik qonuniyarlarga murojaat etsak quyidagini nazarda tutish lozim bo'ladi. Biron faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan inson miyasiga dam berishning eng samarali va maqbul uslubi – miyaning bir qo'zg'alish o'chog'idan ikkinchisiga o'tish va ma'lum vaqtdan so'ng yana avvalgisiga qaytishdir.

Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kirita olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. O'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning ehtiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning xohish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, ehtiyojini, xohish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion, interfaol ta'lim o'qituvchi va o'quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o'z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin:

- O'quvchi o'qitilibgina qolmay, mustaqil o'qish, o'rganish, ishlashga, o'zlashtirishga o'rgatiladi.

- O'quvchilarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z nuqtayi nazarini himoya eta olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

- O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi.

- O'quvchining darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.

- Sinfdagi barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishlari kafolatlanadi. O'quvchining o'zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

- O'qituvchi – o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv – biluv faoliyatlariga olib kira olsalar, barcha o'quvchilar deyarli bir xil natijalarga erishadilar.

Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda:

- 1.O'quvchilarning o'zaro faolligi oshadi, hamkorlik, ham ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

- 2.O'quv reja, dastur, ta'lim mazmuni, darslik, standart, me'yor, qo'llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi.

- 3.Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

Dam beruvchi mashqlar ko'pincha dars o'rtasida ,o'quvchilarni ixtiyoriy diqqat doirasidan chiqarish va ma'lum muddatdan so'ng diqqatni qayta safarbar etish uchun

quvvat berishga yoʻnalgan. Bu mashqlar umumguruhiy, jamoaviy mohiyatga ega. Ahillashturuvchi mashqlar oʻzaro idrok, muloqot va munosabat doirasida qotib qolgan chegarani kengaytirish, shakllangan stereotiplarni yumshatish vazifasini oʻtaydi. Natijada, oʻquvchilar orasida munosabatlar yanada aniqlashadi, bir oʻquvchi ikkinchisiga xos boʻlgan yangi sifatlarni koʻtish imkoni paydo boʻladi va oʻzaro idrokdagi bunday yangi jihatlar munosabatlar tizimiga ham oʻzgarishlar olib kiradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar oʻz mohiyatiga koʻra yaxlit va tizimlashgan koʻrinishga ega boʻlib, oʻquvchi shaxsiga ijobiy oʻzgarishlarni shakllantirish va shaxs aqliy faoliyatining asosi boʻlmish diqqat jarayonini barqarorlashtirish tadbirlarida ham oʻrinli boʻlishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T. Oʻzbekiston. 1998. B. 90-95.
2. Gʻoziev E. Ontogenez psixologiyasi. T. Sharq. 2008. B. 33-35.
3. Shoumarov G. Oila psixologiyasi. T. Sharq. 2001. B. 24-25.
4. Nishonova Z. Oʻsmirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. Oʻquv qoʻllanma. T., Sharq. 2003. B. 25-2
5. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: Oʻzbekiston, 2017, - 322b
7. E.GʻGoziyev – “Umumiy psixologiya”.– Toshkent: 2002 yil.
8. E.Gʻ.Gʻoziyev – “Ijtimoiy psixologiya” – Toshkent: 2016 yil.
9. E.Karimova – “Tolerantlik va hozirgi zamon” – Toshkent: 2008 yil.
10. F.Saifnazarova – “Kelajak toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik” – Toshkent: 2007 yil.
11. [http://www.Psichologiya.uz](http://www.Psixologiya.uz)
12. <http://www.Ziyonet.uz>